

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**XUDAYBERDIYEVA (AXMADALIYEVA) DILNOZA
ABDULXAMID QIZI**

**PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASH QURILMASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xudayberdiyeva (Axmadaliyeva) Dilnoza Abdulxamid qizi Paxani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini takomillashtirish.....	3
Худайбердиева (Ахмадалиева) Дилноза Абдулхамид кизи Усовершенствование устройства для очистки хлопка от мелких примесей.....	23
Khudayberdiyeva (Akhmadaliyeva) Dilnoza Improvement of equipment for cleaning cotton from small impurities.....	43
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	46

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**XUDAYBERDIYEVA (AXMADALIYEVA) DILNOZA
ABDULXAMID QIZI**

**PAXTANI MAYDA IFLOSLIKlardan TOZALASH QURILMASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T3336 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga www.nammti.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Obidov Avazbek Azamatovich
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy
opponentlar:**

Rasulov Ro'zimurod Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Xamidulla Abduxoshimovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «15» noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 228-76-71, faks: 228-76-75; e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 6-binosi, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-71

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «1» noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «27» sentabrdagi. № 2/1 raqamli reestr bayonnomasi)

A.M.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A.Mahsudov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

U.J.Yeshbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik xom ashyolariga talab ortib borishi ortidan ularni zamon talablari asosida takomillashtirish hamda resurslarni tejash orqali samaradorlikni oshirish va ulardan oqilona foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda jahon miqyosida paxta yetishtirish, uning iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, paxtani tayyorlash va dastlabki ishlash jarayonlarida, xususan paxtani terish, tashish, quritish, iflosliklardan tozalash jarayonlarida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiruvchi avtomatlashgan, resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda¹. Bu borada jumladan, paxtani tozalash va bir tekisda (uzluksiz) mashinalarga uzatish, titish va tozalash texnikasi hamda texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta tozalash hamda jarayon vaqtida materialni samarali titish orqali tozalashni oshiruvchi yanada samarali texnologiya va ta'minlash qurilmalarini ishlab chiqish, paxtani tozalash va uzluksiz uzatish, resurstejamkor tozalagichlar va ta'minlagichlarning yangi konstruksiyasini yaratish, ishlash rejimlari va parametrlarini asoslashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan paxtani mayda iflosliklardan tozalashda sodda texnologiyalardan foydalanish, yangi takomillashtirilgan ishchi organlar yaratish hamda ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, asosiy ishchi organlari parametrlari hamda shaklini o'zgartirish orqali ham samaradorlikni oshirish, xom ashyo sifatini yaxshilash hamda sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida amaliy tajribalar o'tkazish usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosidan yuqori sifatli tola ishlab chiqarish va uni chuqur qayta ishlash asosida keng assortimentdagi yuqori sifat va past tannarxga ega bo'lgan to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha: "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish"² bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda resurs tejamkor mahalliy texnologiyalardan foydalanib tolani chiqindiga ketib qolishini oldini olish zamonaviy ishlab chiqarish muhim hisoblanadi.

¹ Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli “Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxtani qayta ishlash texnologik mashinalarida paxtani titish, tozalash va bir tekisda uzatishni, ta'minlagich ishchi organlari konstruksiyalarini takomillashtirish, texnologik parametrlari va rejimlarini optimallashtirish, mashinalarni ishlab chiqish va tadqiq etish bilan horijda R.V.Baker, R.M.Sutton, S.E.Hughs, J.V.Laird, S.Gordon, Y.L.Hsieh va boshqa olimlar shug'ullanishgan. Mamlakatimizda paxtani tozalash va texnologik jarayonga bir tekisda uzatish, titishni fundamental, amaliy masalalari va metodologik asoslarini yaratish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar B.V.Loginov, G.I.Miroshnichenko, G.I.Boldinskiy, P.N.Tyutin, A.Djuraev, A.E.Lugachev, Ye.F.Budin, F.M.Baxtiyarova, D.M.Muxammadiev, J.Yu.Miraxmedov, M.T.Xodjiev, G.A.Kurbanova, I.D.Madumarov, X.S.Usmanov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida bugungi kunda paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosini texnologik mashinalarga bir maromda uzatishni ta'minlaydigan paxta ta'minlagichi, paxtani iflosliklardan tozalagichning ishchi organlarining mazkur texnologik jarayonlarini boshqarish, ishchi organlarini bir qator konstruktiv yechimlari mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universiteti “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Paxta tozalash korxonasida paxta xom ashyosi va tola tozalash texnologiyasini takomillashtirish” (2024-2025) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta xom ashyosini mayda iflosliklardan tozalash mashinasi to'rtli yuzasi foydali maydonini oshirish orqali tozalash samarasini oshirish hamda xom ashyoni shikastlanishini oldini oluvchi tozalash tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mexanik ta'sirlarni kamaytirish va foydali yuzani oshirish orqali samarali tozalagichning konstruktiv va texnologik parametrlarini matematik modeli izlanishlar asosida ishlab chiqish;

mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini energiya tejamkorligini oshirish maqsadida energiya tejevchi tizimni tadbiq qilish va uni qo'llash uchun mahsus moslama ishlab chiqish;

foydali yuzani oshirish orqali tozalash samaradorligini ta'minlash maqsadida hamda paxtaning sifatini saqlaydigan "qoziqli baraban-to'rli yuza" tizimi ishchi organlari konstruktsiyalarini ishlab chiqish;

mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarning (baraban qoziqlari va to'rli yuza orasidagi masofa, ish unumdorligi, similar orasidagi masofa) optimal qiymatlarini hisoblab topish;

mayda iflosliklardan tozalovchi yuza tirqishlarini tashkil qiluvchi simlarning mustahkamligini SolidWorks dasturi asosida aniqlash;

paxtaning dastlabki ko'rsatkichlariga asoslangan takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash mashinasi ishlashini ishlab chiqarish sharoitida sinash va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxta tolasini iflosliklardan tozalash mashinasi olingan.

Tadqiqotning predmetini paxtani mayda iflosliklardan tozalagichning to'rli yuzasi va qoziqli barabani, paxtani tozalash mashinasining boshqarish tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik amallar, amaliy mexanika, mustahkamlik nazariyasi, optimallashtirish, tajribalarda sinov va solishtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani mayda iflosliklardan tozalash samarasini hamda to'rli yuza foydali maydonini oshirish maqsadida po'lat simlardan iborat uzluksiz tirqishli to'rli yuzaga ega konstruktsiya ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasi energiya tejamkorligini 0,91% ga ta'minlash imkoniyatiga ega yumshoq start moslamasi konstruktsiyasi ishlab chiqilgan;

optimallashtirish usuli yordamida paxtani iflosliklardan tozalash jarayonini samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar maqbul qiymatlari: baraban qoziqlari va to'rli yuza orasidagi masofa 14 mm, qurilmaning ish unumdorligi 7000 kg/soat hamda simlar orasidagi masofa 5 mm bo'lishi aniqlangan.

to'rli yuzani tashkil qiluvchi po'lat simlarning mustahkamligini aniqlovchi maxsus dastur ishlab chiqilgan hamda eng kichik mustahkamlik zaxirasi - 124 ni tashkil qilishi va standart talablarga to'la javob berishi mustahkamlik zaxirasini aniqlash epyuralarini qurish orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani tozalashda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining takomillashtirilgan konstruktsiyasi ishlab chiqilgan;

paxtani mayda iflosliklardan tozalagichning qayishqoq asosdagi qoziqlari hamda uzluksiz to'rli yuzaning takomillashtirilgan konstruktsiyasi ishlab chiqilgan;

paxtaning dastlabki ko'rsatkichlariga asoslangan mayda iflosliklardan tozalash mashinasida paxtani tozalash tizimini qo'llash hisobiga energiya sarfi kamayishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari mutanosibligi, aniqlangan parametrlarga ega ishchi qismlari bo'lgan takomillashtirilgan qurilmada ishlab chiqarish tajribalari natijalari hozirgacha ishlatib kelingan yoki yaratilgan qurilmalar natijalari bilan solishtirilib asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tavsiya qilingan paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasi uzluksiz to'rli yuza va paxta tozalagichning qayishqoq asosli qoziqlarini nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalari, tozalagichning energiya tejamkorligini aniqlash bo'yicha olingan nazariy asoslari va parametrlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining qoziqli baraban-to'rli yuza zonasidagi asosiy ishchi organlar takomillashtirilganligi hamda energiya tejoychi moslama joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinalari konstruktsiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan paxtani tozalash uskunasi «O'z paxtasanoat» AJga qarashli "To'raqo'rg'on paxta tozalash" korxonasi joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025 yil 4 martdagi 03/25-424 son ma'lumotnomasi). Natijada tozalash samaradorligi 92 % ga oshishiga, chigitlarni mexanik shikastlanishi 1,25 % ga kamayishiga, erkin tolalar miqdori mavjud qurilmaga qaraganda 0,018 % ga va toladagi iflosliklar miqdori esa 0,332 % ga kamayishiga erishilgan. Iflosliklardan tozalash qurilmasiga yangi energiya tejoychi moslamani o'rnatish orqali start rejimida 45% energiya tejash imkoniyati yaratilgan, ya'ni 234 ish kunida umumiy energiya sarfi 0,91 % ga tejalgan. Yumshoq start moslamasini qo'llash orqali dvigatel ish muddatini 25 % ga uzaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 8 ta turli ilmiy konferentsiyalarda, shu jumladan 5 ta xalqaro, 3 ta Respublika konferentsiyalarida va 1 ta ilmiy seminarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 2 ta maqola esa xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini

rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyoti, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi "**Paxta xom ashyosini tozalashning ilmiy texnik asoslari**" bo'limi adabiy manbalarni analitik tahliliga va paxtani iflosliklardan tozalash jarayoni texnika va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda korxonada ishlatib kelinayotgan paxta tozalash qurilmalari holatlari hamda tozalash qurilmalarida samaradorlikni oshirish bo'yicha tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Paxtadan mayda iflosliklarni ajratish jarayoni paxtani dastlabki ishlash jarayonidagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanib, u keyingi bosqichlarda, ya'ni jinlash va to'lan tozalash jarayonlariga katta ta'sir etadi. Agar mayda iflosliklar yetarli darajada tozalanmasa u passiv ifloslikdan aktiv ifloslikka o'tadi va tola tozalagichda bu iflosliklarni ajratilishi qiyinlashadi. Paxtadan mayda iflosliklarni ajratuvchi barcha tozalagichlar bir xil tarzda ishlaydi, ya'ni paxta qoziqli barabanlarda titkilanib to'rtli yuzali sirtlar orqali xarakatlantiriladi. Bu jarayon bir necha marotaba takrorlanadi va paxtadan mayda iflosliklar tozalanadi. Tozalash samaradorligi qoziqli barabanlar aylanish soniga, to'rtli yuzaga va paxtaning namlik va hokazo ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Qoziqli-plankali barabanlarning aylanish soni paxta chigitini mexanik shikastlanishi ortishi, to'rtli yuzaning maydoni esa paxtani iflos aralashmalar tarkibiga o'tishi bilan chegaralangan. Tituvchi qoziqli-plankali barabanlarning aylanish tezligi paxta chigitining mexanik shikastlanishining o'sishini, to'rtli sirtning foydali yuzasi esa paxta tarkibidan iflos aralashmalarni chiqib ketishini belgilaydi. Paxtadan mayda iflosliklarni tozalash uchun ishlatiladigan uskunalarning asosiy ishchi qismlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. EN.178 rusumli tozalagich bo'linmasi

1-rama; 2-qoziqli-plankali baraban; 3- to'rtli yuzaga


Mashina terimi va qiyin tozalanadigan paxtalarni tozalash uchun UXK agregati tarkibidagi seksiyalar soni oltitaga oshirildi, agregatning old va oxiriga paxtadan mayda iflosliklarni tozalalovchi 1XK rusumidagi tozalagich o'rnatildi. UXK agregati ish unumdorligi ChX rusumidagi tozalagich ish unumdorligidan farqliroq bo'lib, 7 t/soatni, tozalash samaradorligi esa paxtaning namligi va boshlang'ich iflosligiga qarab 75-80% tashkil etadi.

Mazkur bo'limda Respublikamizda hamda xorijda ishlab chiqilgan paxta tozalash qurilmalari atroflicha ko'rib chiqildi hamda ularning ishlashi, afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi. Oldin olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari hamda korxonalaridagi mavjud qurilmalar ishlashi tahlillari asosida ushbu dissertatsiya ishining yo'nalishi va maqsadi aniqlab olindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini takomillashtirilgan sxemasini yaratish va nazariy tomondan o'rganish”** bo'limida asosan takomillashtirilgan qurilmani tanlashda o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Bugungi kunda paxta tozalash jarayonini bir me'yorda borishi, har bir uskunaga qo'yiladigan talablarni maksimal darajada bajarilishi, hamda tozalash jarayonida kelib chiqadigan ayrim sabablar esa paxtadan mayda iflosliklarni tozalash uskunalari tozalash jarayonida samarasi kam ekanligi kuzatilgan, buning sababi esa qoziqli-plankali baraban kontakt burchagi va to'rli yuzaning ishchi zonasi qamrov burchagi katta bo'lmaganligi sababli, tozalash jarayonida ko'p sonli qoziqli barabanlarni ishtiroki paxta tolasini sifat ko'rsatkichlari salbiy ta'sir etishi va energiya sarfining oshishiga olib keladi. Taklif etilayotgan uzluksiz tozalash tirqishiga ega bo'lgan va bir biriga parallel joylashgan simlar tashkil etgan yuzada paxtani bir maromda harakatlantiruvchi takomillashtirilgan tozalash uskunasini to'rli yuza ishchi zonasining oshishi hisobiga yuqorida keltirilgan kamchiliklarni barataraf etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda qoziqli baraban bilan to'rli yuzani salbiy ta'sirlashuvi maksimal kamaytirilgan va bu to'rli yuza foydali ishchi maydonini ko'payishiga va o'z navbatida tozalash samaradorligini oshishiga erishiladi. Keltirilgan ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda nazariy va tajribaviy izlanishlar olib borildi. Paxta tarkibidan iflos aralashmalarni samarali ajratib olish uchun uning elastiklik xususiyatlarini oshirish ya'ni uni yaxshi quritish, tarkibidagi ortiqcha namlikni ajratib chiqarish yoki qoziqli baraban konstruksiyalarida qo'shimcha majburiy tebranishlar hosil qilish kerak bo'ladi.


Takomillashtirilgan mayda iflosliklarni tozalash qurilmasi ishchi zonasi – qayishqoq elementli qoziqli baraban hamda paxta harakati yo'nalishi bo'ylab uzluksiz tirqish hosil qilgan to'rli yuzadan iborat. Ushbu qurilmaning asosiy afzalligi yuqori ish unumdorligida, paxtaga mexanik ta'sirlarni kamaytirish orqali tozalash samaradorligini oshirishdan iborat (2-rasm).



2-rasm. Qayishqoq elementli qoziqli baraban (a) va uzluksiz tirqishli to'rli yuzali (b) mayda iflosliklarni tozalash zonasining sxemasi

To'rtli yuzani loyihalayotganda iflosliklarni tozalash va yo'nalish bo'ylab uzluksiz tirqishlarni hosil qilish hisobiga foydali yuzani va samaradorlikni oshirib uning ishonchligini ta'minlash kerak. Tozalash barabani qoziqlari va to'rtli sirt orasidagi masofani 18-20 mm qilib olinadi.

Foydali yuza koeffitsientini aniqlashda (3-rasm) dagi 100×100 mm li sirtni misol uchun olamiz (o'lchamni qancha katta olinsa, aniqlik shuncha yuqori bo'ladi, lekin hisoblash qiyinlashadi).




3-rasm. Mavjud to'rtli sirt

Loyihalashda SolidWorks dasturidan foydalanamiz.

Taklif etilayotgan simli to'rtli sirtning massasini aniqlash uchun ham maxsus dastur yordamida hisoblashlar bajarildi.

Taklif etilayotgan simli to'rtli sirtning massasi M_t 19,75 kg ni tashkil qildi.

Diametri 4 mm bo'lgan simning sirt maydoni F_{sim} 23876,1 mm² ni tashkil qildi. Xomashyo simning ustki yarmi bilan kontaktga bo'lishini hisobga olib, maydonni $F_{sim} = 7600$ mm² deb qabul qilamiz. Bu qiymatni sim qatorlari soniga ko'paytirsak, simli sirtning yuzasini aniqlaymiz $F_{sim\ to'la} = 7600 \cdot 72 = 547200$ mm².



4-rasm. Simning sirt maydoni

Foydali yuza $F_{f.sim}$ ni torish uchun to'la yuza F dan teshik hosil bo'lgandan keyingi simli sirt yuzasi $F_{t.sim}$ ni ayriymiz:

$$F_{f.sim} = F - F_{t.sim} = 1193805,2 - 547200 = 646605,2 \text{ mm}^2,$$

Olingan natijalarni (1) ifodaga qo'yamiz:


$$k_{f.yu.sim} = \frac{646605,2}{1193805,2} \cdot 100\% = 54,2\%$$

Demak, mavjud to'rtli sirtning foydali yuza koeffitsienti $k_{f.yu.sim} = 29,4\%$ ni, simli sirtniki esa $k_{f.yu.sim} = 54,2\%$ ni tashkil qildi. Bu esa iflos aralashmalarni ishchi zonadan tezroq chiqishiga va tozalash samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ixtiyoriy detalni muhandislik hisoblashda uni statik tahlil qilishdan boshlanadi. Dastlab mavjud to'rtli yuzaning statik hisobini olib boramiz. Buning uchun SolidWorks dasturining Simulation paketidan foydalanamiz. To'rtli yuzani 3D ko'rinishda modellanib, ro'yxatdan material, o'rnatish sharti, tashqi kuchlar (og'irlik kuchi va paxtaning taqsimlangan kuchi) tanlanadi va qiymatlari kiritiladi.

Mashinaning unumdorligi 7000 kg/soat ni tashkil qilganligi uchun, sekundiga 2 kg atrofida paxta to‘rli yuzada taqsimlangan bo‘ladi. Biz taqsimlangan massani 10 kg deb qabul qilamiz. To‘rli yuzaga egilishini oldini olish maqsadida 376 mm qadam bilan 6 ta yarim halqa o‘rnatilgan.

Barcha kerakli amallarni bajargandan so‘ng dastur qo‘yilgan masalani yechadi va rangli epyuralar ko‘rinishida natijani tasvirlaydi (5-rasm).




5-rasm. Simli sirtning mustahkamlik zaxirasini aniqlash epyuralari
a) ko‘chish epyurasi, b) deformatsiya epyurasi, c) mustahkamlik zaxirasi

Simli sirtning epyuralaridan ko‘rinib turibdiki, hosil bo‘ladigan maksimal kuchlanish 1,372 MPa ni, ko‘chish – 0,01536 mm ni, deformatsiya – 0,00000052 ni, eng kichik mustahkamlik zaxirasi – 124 ni tashkil qildi, ya’ni to‘rli yuzaga nisbatan mustahkamlik xarakteristikalarini kamroq, lekin qo‘yilgan talablarga to‘la javob beradi.


Sanoat korxonalarida reaktiv quvvatni asosiy qismini asinxron yuritgichlar (iste‘mol qilinayotgan umumiy reaktiv quvvatning 60-65%), transformatorlar (20-25%), havo elektr uzatish liniyalari, reaktorlar, o‘zgartgichlar (10% atrofida) va boshqa elektr iste‘molchilar iste‘mol qiladi. Hozirgi kunda energiya sarfini kamaytirishga imkon beruvchi moslamaning yaratilishi juda katta ijtimoiy-iqtisodiy samara beradi.

Qurilmaning ish jarayonidagi kamchilik sifatida aytish mumkinki mahsulotning ta‘minlagichga kelishiga qarab elektrodivigatel ishlash vaqti turli vaqtlarda turlicha davomiylilikda ishlashi mumkin. Bu esa elektrodivigatelning uzib-ulashtirish sonini ortirib yuboradi va ulanganida ishga tushish rejimining 5-6 marotaba elektr energiya iste‘moli talab qiladi. Uzib-ulashtirish sonining ko‘pligi elektr energiya iste‘moli va ishga tushishdagi qurilmaga ta‘sirlarini bildiradi ya’ni valning hamda arra tishlarning mustahkamlik davrini qisqartiradi.

Elektr dvigateli to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirilganda, elektr tarmog‘idagi kuchlanish keskin pasayadi, stator boshlang‘ich oqimlari kritik qiymatlarga (nominal qiymatdan 6-8 baravar yuqori) va sezilarli darajada oshadi. Ushbu parametrlarni boshqarish uchun yumshoq starter ishlatiladi (6-rasm). Elektr dvigatelining tezlashishi paytida yumshoq starter besleme kuchlanishini dastlabki darajaga ko‘taradi (nominaldan 40-60% kamroq), keyin uni asta-sekin nominal qiymatga oshiradi. Kuchlanish kuchayishi bilan boshlang‘ich oqimi va uning o‘sish tezligi pasayadi va buning natijasida elektr motorining ishga tushirish vaqti ortadi. Kuchlanishni cheklash uchun quvvat kalitlari - tiristorlar ishlatiladi.



6-rasm. Tashqi bypass kontaktorli yumshoq starter sxemasi



7-rasm. Raqamli yumshoq start o'rnatilgan elektrodvigatel yuklama grafigi

Dvigatel kuchlanishi nominal qiymatga yetgandan so'ng va tezlashtirish jarayoni tugallangandan so'ng, yumshoq starter bypass kontaktori (bypass) yordamida kontaktlarning zanglashiga olib tashlanadi. Yumshoq starter orqali oqim to'xtaydi va qurilma soviydi. Ba'zi yumshoq ishga tushirgichlarda o'rnatilgan aylanma yo'l mavjud. Bu starterning hajmini va og'irligini kamaytirishga imkon beradi, chunki katta sovutish radiatoriga ehtiyoj yo'q.

Dvigatel tormozlanganda, yumshoq starter to'g'ridan-to'g'ri oqim beradi. Ushbu funktsiya faol yuk (liftlar, liftlar, yig'imli konveyerlar) bo'lgan elektr haydovchini boshqarishda zarur. Elektr dvigatelining kiruvchi kuchlanishini va ishga tushirish momentini silliq tartibga solish haydovchiga boshlang'ich yukni kamaytirish, uning mexanik qismlarining og'irligini kamaytirish va uskunani ortiqcha yuklanish va qizib ketishdan himoya qilish imkonini beradi.

7-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, UXK agregatiga yumshoq starter o'rnatilganda ko'k chiziq – bu nazariy jihatdan dvigatelni ishga tushirish toki. Qizil chiziq bu amaliy jihatdan o'lchash orqali olingan natija. Bu nazariydan farq qilib, bir xil vaqt ichida 150 A ni tashkil qilib, bu nominalga nisbatan 1,5 barobarga ko'proq sarf qiladi. Sariq chiziq bu boshqaruv paneli qo'yilgandan keyingi holati. Ya'ni yumshoq rejimda ishga tushirilgandagi holat bo'lib, bir xil vaqt ichida 25 A ni sarf qiladi. Bunda dvigatel birdaniga ishga tushirilganda mavjud qurilma holatida 57 kVt quvvat talab qilgan bo'lsa, “yumshoq start” qo'llanilganda bu quvvat sarfi 9,5 kVtgacha kamayishi aniqlandi. Agar ishga tushirish toki me'yoridan ortiq bo'lsa, bu dvigatelni tezda ishdan chiqishiga sabab bo'ladi, ishga tushish toki nominalga qaytgunicha quvvat yetarlicha isrof bo'lishi mumkin hamda tarmoqdagi reaktiv quvvat ortishi kuzatiladi, biz qurilmaga “yumshoq start” moslamasi qo'yish orqali shu muammolarni hal qilish imkoniyati yaratildi.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Takomillashtirilgan qurilma konstruksiyasini ishlab chiqarish va tajribalar o'tkazish”** bobida qurilmaning asosiy ishchi organlarini tanlangan hamda amaliy tadqiqotlar asosida uning samarali ishlashi aniqlangan.


Dissertatsiya ishida paxta xom ashyosini mayda iflosliklardan tozalash mashinasi to'rtli yuzasi foydali maydonini oshirish orqali uning unumdorligini hamda tozalash samaradorligini oshirish maqsad qilib olindi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda paxta xom ashyosi tarkibida g'o'za barglari, chanoq qoldiqlari, puch va singan chigitlar, mineral mayda aralashmalar miqdorini aniqlash lozim. Tozalash

vaqtida paxta tarkibidagi iflosliklar maksimal darajada tozalanmasa (odatda tozalash samaradorligi 70-75 % ni tashkil qiladi), keyingi jarayonlardan o'tib ishlab chiqarilgan tola sifati pastlab ketishi mumkin. Mana shularni inobatga olgan holda yangi takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash qurilmasida paxta xom ashyosi tarkibidan mayda iflosliklarni havoga qo'shib ketishi hamda keyingi texnologik jarayonlarga o'tib ketishini oldi olinadi. Yangi taklif qilinayotgan tozalash qurilmasining afzalligi uzluksiz to'rtli yuzada hamda qayishqoq qoziqlar yordamida tozalash natijasida samaradorlikni oshirish hamda xom ashyoga bo'ladigan mexanik ta'sirlarni kamaytirishdan iborat.

Takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining asosiy ishchi organlari, uzluksiz tirqishlar hosil qilgan to'rtli yuz (tirqishlari sirtning umumiy maydoni bo'ylab xech qanday to'siqlarga ega bo'lmaydi, simlarning mustahkamligini ta'minlovchi halqalar to'rtli yuzaning pastki satxida joylashgan bo'lib, halqa to'rtida tushayotgan iflosliklarga xech qanday halaqit bermaydi) va qayishqoq elementga o'rnatilgan qoziqlarga ega bo'lgan barabandan iborat (8-rasm).

Takomillashtirilgan mayda ifloslardan tozalash qurilmasida 12-14 % ga ortishi natijasida tola sifatining yaxshilanishidan korxonaga sezilarli darajada iqtisodiy samaradorlik keladi. Takomillashtirilgan tozalash qurilmasi quyidagi asosiy qismlardan iborat (8-rasm): 1-ta'minlovchi valiklar, 2-tituvchi baraban, 3-qoziqli barabanlar, 4-qoziqlar, 5-qoziqlarning qayishqoq asosi, 6-uzluksiz tirqishli to'rtli yuz.

Qurilma quyidagicha ishlaydi: Ta'minlagich valiklar 1 dan tituvchi baraban 2 orqali paxta xom ashyosi qayishqoq asos 5 ga o'rnatilgan qoziqli barabanlar 3 bilan uchrashadi. Qoziqli barabanlar paxta xom ashyosi massasini olib o'tib, to'rtli yuzalar 6 ustiga keltiradi va paxta qoziqlar ta'sirida va to'rtli yuz ustidan sudralishini natijasida yaxshilab titiladi. Titilish natijasida esa paxta xom ashyosi tarkibidagi mayda iflosliklar to'rtli yuz tirqishlaridan o'tib ketadi.



8-rasm. Takomillashtirilgan mayda iflosliklarni tozalash zonasining texnologik sxemasi



9-rasm. Tajriba qurilmasi

Qurilmaning boshqa tozalagichlardan asosiy texnologik farqi bu to'rtli yuzani silliq po'lat simlardan qilib tayyorlanishi hamda simlar uzluksiz tirqishlar hosil qilganligi sababli to'rtli yuzaning foydali maydoni mavjudga qaraganda deyarli 2 barobarga ortishi (54,2%) natijasida tozalash samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Bundan tashqari yuz silliqdagi ortganligi sababli berilgan maksimal ish unumdorligida tiqilishlarsiz bema'lol ishlash imkoniyati mavjudligi hamda qoziqlar

qayishqoq asosga oʻrnatilganligi sababli titish intensivligi ortishi barobarida mexanik taʼsirda shikastlanish holati ham kamayadi.

Tozalagichning takomillashtirilgan uzluksiz tirqishli toʻrli yuzasi dinamik va kuchlar asosidagi yuklanishlarini oʻrganish maqsadida tajriba qurilmasi ishlab chiqildi. Bunda tajribalar simlarga boʻlayotgan yuklanishlar oʻzgarishidagi asosiy geometrik va kinematik parametrlarning turli qiymatlarining taʼsiri oʻrganildi. Qurilmaning asosiy koʻrinishi 9-rasmda tasvirlangan. Tajriba qurilmasi tozalagichning modelini tashkil qilib, sanoat namunasidagi 1XK (UXK) mayda iflosliklardan tozalash qurilmasi elementiga mos keladi. Bu tajriba qurilmasi 112MA6 doimiy tok elektr dvigateli 3 ga ega boʻlib, uning asosiy ishchi organlari quyidagilar: 1-uzluksiz tirqishli toʻrli yuza, 2-qoziqli baraban (9-rasm). Oldingi qismlarda taʼkidlanganidek, qurilmaning asosiy takomillashtirilgan ishchi organlari bu – qayishqoq elementli qoziqli baraban hamda uzluksiz tirqishli toʻrli yuzadan iborat, bundan tashqari qurilma elektr energiyasi sarfini kamaytirish maqsadida maxsus moslama oʻrnatilgan.


Mazkur tajriba qurilmasi Namangan davlat texnika universiteti laboratoriyasida tayyorlangan boʻlib, mavjud metodika asosida ishlab chiqildi hamda har bir tajribalarda 30 kg dan paxta oʻtkazib natijalar belgilab borildi.

1-simlardan iborat yuza, 2-qoziqli baraban, 3-elektrodvigatel Taʼmnlovchi valiklarning aylanish chastotasi sozlash orqali tozalash zonasiga birlik vaqt mobaynida uzatilayotgan paxta miqdorini oʻzgartirish mumkin. Bu sinash ishlari simli yuzalarni yuklanish qonuniyatini oʻrnatish hamda birlik vaqt mobaynida paxta xom ashyosini uzatish hajmidan – ish unumdorligidan simlarni egilib tebranishi xarakterini aniqlash maqsadida oʻtkazildi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan tajriba-sinash parametrlari odatda tenzometriya usuli yordamida aniqlanadi. Tenzobalkalar tarirovkasi yuklanish va boʻshatishning 5 ta qadamda 1,2,3,4,5 mm intervalda oʻtkazildi hamda har bir qadam registratsiya qiluvchi asbob yordamida yozib borildi. Tarirovka koʻrsatkichlari boʻyicha tarirovka koeffitsienti olindi. Keyin esa, tajribadan olingan qiymatlar tarirovka koeffitsientiga koʻpaytirildi hamda shunday qilib yuklanish kuchlarining haqiqiy qiymatlari paydo boʻladi. Olingan qiymatlar matematik statistika uslubi yordamida kompyuterda qayta ishlanadi.

Tajriba-sinov ishlari 2023 yil hosilidan birinchi navli - S-6524 seleksion navli, namligi 7,8, iflosligi 12,1 % va Namangan-77 seleksion navli, namligi 7,5 %, iflosligi 10,9 % boʻlgan xom ashyo uchun oʻtkazildi. Har bir sinov ishlaridan soʻng barcha tenzorezistorlarni qayta tarirovkalash amalga oshirildi.

Metal sterjenni egilishidan yuzaga keluvchi mehanik kuchlanishni elektron qurilmalar yordamida oʻrganish uchun. Ikki tayanch orasida joylashgan metal sterjenda yuzaga keluvchi egilish deformatsiyasi hodisasini matematik tahlil qilish ishlari bajarildi. Bunda asos sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalashda takomillashtirilgan extiyot qism etib belgilangan uzluksiz toʻrli yuza olingan. Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda takomillashgan qurilmaning ishchi holatida yuklamasiz va yuklamali holatlari uchun toʻrli yuzada vujudga kelgan deformatsiya kattaliklari asosida tenzoelementda hosil boʻlgan kuchlanishlarni tadqiq etildi.



10-rasm. Mayda iflosliklarni tushish tahlili

10-rasmda keltirilgan grafik tahlilini olish uchun to‘rli yuza ostiga tarnov ko‘rinishida keng yuzali metal bo‘lagi joylandi va u orqali tushayotgan mayda iflosliklarni 1 sm² yuzali joydan tushirishga erishildi. Natijada fotorezistor orqali tushayotgan jismni yorug‘likni berkitishi yoki berkitmasligiga bog‘liq ravishda kuchlanish o‘zgarishini tahlil qilish orqali real vaqt rejimida qurilmaning ish samaradorligini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

Xulosa qilib aytganda fotorezistor, tenzorezistor, Uitson ko‘prigi, kuchaytirgich, otsilograf kabi elektron qurilmalardan foydalanish natijasida qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘luvchi jarayonlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Olingan natijalar aniqligi yuqori bo‘lib, ular foydalanilgan aktiv elektronika elementlari kattaliklariga bog‘liqdir. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini takomillashtirish maqsadida foydalanilgan to‘rli yuzaning metal sterjenlari mustahkamligi qurilmani maksimal kuchlanishda ishlagan holatida ham bardoshli bo‘lib, bu qurilmani uzoq vaqt turg‘un rejimda ishlashiga salbiy ta‘sir etmaydi. Sterjenni yon sirt devori silindr shaklida bo‘lganligi uni havo oqimini suyuri shakllarga nisbatan o‘tuvchanligi bois qarshilik kuchlarini kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu esa foydali ish koefitsiyentini ortishiga olib keladi.

Takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini yaratishdan asosiy maqsad paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni maksimal darajada tozalashdan iborat. Shunday ekan optimallashtirishda chiquvchi parametr qiymatining maksimizatsiyasiga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Birinchi navbatda oldin olib borilgan tadqiqotlar va mavjud metodikasi asosida tozalash qurilmasi ishlashiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni belgilab olish lozim bo‘ladi.

Chiquvchi parametr – tozalash samaradorligini Y bilan belgilaymiz. Kiruvchi omillarning qiymatlar oralig‘i 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o‘zgarish sathlari va oraliqlarni tanlash

Omillar nomi va o‘lchov birligi	Belgilan ishi	O‘zgartirish sathlari			O‘zgartirish oralig‘i
		-1	0	+1	
Baraban qoziqlari va to‘rli yuza orasidagi masofa, mm	x_1	14	16	18	2
Ish unumdorligi, kg/soat	x_2	6000	7000	8000	1000
Simlar orasidagi masofa, mm	x_3	5	7	9	2

Aniqlangan regressiya koeffitsientlarini hisobga olgan holda tenglamani yozamiz:

$$Y_R = 89,57 + (-1,54)X_1 + 1,46X_2 + (-1,25)X_3 + 0,4X_1X_2 + (-0,92)X_1X_3 + 0,62X_2X_3 + 0,10X_1^2 + (-1,47)X_2^2 + 0,22X_3^2$$

Ahamiyatli koeffitsientlar bilan tenglamani qayta yozamiz:

$$Y_R = 89,57 + (-1,54)X_1 + 1,46X_2 + (-1,25)X_3 + (-1,47)X_2^2$$

Yuqorida keltirib olingan regression matematik modelning adekvatlik yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonining hisobiy qiymatidan foydalanib aniqlaymiz.

Tadqiqot natijalari bo'yicha grafiklar qurilib, undan aniqlanishicha paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining optimal qiymatlari mashinani samarali ishlashiga sezilarni ta'sir ko'rsatdi. Bunda ratsional yechimlar quyidagicha, baraban qoziqlari va to'rtli yuza orasidagi masofa 14 mm, qurilmaning ish unumdorligi 7000 kg/soat hamda simlar orasidagi masofa 5 mm.

To'rtinchi "**Takomillashtirilgan qurilmani ishlab chiqarish sharoitida sinash**" bobida asosan nazariy tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan yangi qurilmada ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazish va uning samaradorligini asoslash ishlari amalga oshirildi.

Takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini sinash uchun uning maqbul konstruksiyasini tanlab olish va uni tayyorlash lozim bo'ladi. Bizning holatimizda ushbu qurilmaning konstruksiyasini yasash oldingi boblarda yaratilganligi bo'yicha ma'lumot berilgan sxemaga mos qilib ishlab chiqildi.

